



HUDUDLARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

+99893 558 41 48, abdukaxaroff@mail.ru

ORCID: 0000-0001-5111-9042

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekistonda yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Innovatsion loyihalarni moliyaviy-huquqiy qo'llab-quvvatlash, intellektual mulkni himoya qilish hamda texnologiyalar transferi markazlari faoliyatini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, modernizatsiya, texnologiyalar transferi, tijoratlashtirish, intellektual mulk, soliq imtiyozlari, innovatsion moliyalashtirish, texnologik yangilanish, raqobatbardoshlik.

O'zbekiston Respublikasida yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish, ularni innovatsion rivojlanish yo'nalishida jadallashtirish hamda barcha sohalarida tizimli va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Har qanday tarmoqning rivojlanishi, avvalo, shu sohaga oid ilm-fan taraqqiyoti va uning asosida yaratilgan innovatsion texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning taraqqiyotida ilm-fanning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bu holat bugungi rivojlanishimizda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Sababi, har bir aniq soha doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda innovatsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish jarayoni ushbu sohadagi asosiy muammolarni qamrab oluvchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, ularni tasdiqlash va amaliyotga samarali joriy etishni o'z ichiga oladi. Xususan:

- Innovatsion mahsulotlar realizatsiyasidan olingan daromad va moliyaviy resurslarning bir qismini soliq imtiyozlari asosida tartibga solish asosida davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda xususiy sarmoyadorlarning innovatsion loyihalarga moliyaviy resurs yo'naltirishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish;

- Kooperativ hamkorlikka jalb qilingan jami subyektlarning innovatsion g'oyalarni pirovard mahsulot darajasiga yetkazish va ularni bozor sharoitida realizatsiya qilishda soliqlardan qisman ozod etish yoki soliq yukini kamaytirish orqali institutsional hamda iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

- Innovatsion faoliyat subyektlari uchun kafolatlangan hamda imtiyozli shartlarda moliyaviy kreditlardan foydalanish imkoniyatini shakllantirish va

kengaytirish;

- Ilmiy jamoalar, tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va soha olimlarining intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini ishonchli tarzda himoyalash hamda ularning huquqiy kafolatini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlarni shakllantirish;

- Innovatsion jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlar, ularning ijrochilari va ushbu faoliyatni moliyalashtiruvchi investorlarni sug'urta himoyasi bilan ta'minlash, shuningdek, ularga ijtimoiy maqom berilishini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi normativ asoslarni yaratish¹.

Aholi turmush darajasini yuksaltirishning asosiy omili mamlakat iqtisodiyotining izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning ilg'or tarmoqlariga zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlarini keng joriy etishdan iboratdir: "Bugun biz davlat jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan investitsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"².

Innovatsiya - bu kelajak demakdir. Agar biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlamoqchi bo'lsak, bu jarayon aynan innovatsion g'oyalar va yangicha, innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshirilishi lozim. Chunki taraqqiyot sari dadil intilayotgan har qanday jamiyatning poydevori zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar bilan mustahkamlanadi.

Texnologiyalar transferi markazlariga (TTM) yuklatilgan asosiy vazifalardan biri - ilmiy-texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonini tezlashtirish, shuningdek, texnoparklar va innovatsion-texnologik markazlar doirasida kichik innovatsion korxonalarni tashkil etishni ta'minlashdan iboratdir. (1-jadval)

Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari³.

¹ Y.E.Aliev. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019- yil, 236 bet.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Manba: <https://www.president.uz/oz/lists/view/1371>

³ Салихов С.А. Инновацион фаолиятни бошқариш. Дарслик. - Т.: ТДИУ, 2013.

Texnologiyaning rivojlanish bosqichlari	Texnologiyalar transferi bosqichlari
Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bosqichlarini bajarish Texnologiyani amalga oshirish imkoniyatini tekshirish	Tadqiqot natijalarini e'lon qilish Patent arizalari berish Anjuman va ko'rgazmalarda qatnashish Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari natijalariga egalikhuquqini sotish
Tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarini bajarish Mahsulotni sinov namunasi Texnologiya prototipi Texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlash	Texnologiyani amalga oshirish uchun kichik korxona tashkil etish Texnologiyani sotish
Texnologiyani maromiga yetkazish Bozor namunalari yaratish Sinov tariqasidagi sotuvlar Servisni tashkil qilish Ruxsatnoma olish Sertifikatsiya	Mahsulotni ko'paytirish (kichik seriyada) va sotish Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Servis Texnologiyani sotish Korxona aksiyalarini sotish Biznesni sotish
Sanoat texnologiyasi yaratish Ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish Mahsulotni sertifikatlash va ishlab chiqarish Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlarni sotish Servis Texnologiyani sotish Korxona aksiyalarini sotish Biznesni sotish
Ishlab chiqarishni kengaytirish Mahsulotlarni ko'paytirish Ishlab chiqarishni sertifikatlash Ishlab chiqarish va mahsulotni yangilash Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlar sotish Servis xizmati Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Texnologiyani sotish Korxona aksiyalarini sotish Biznesni sotish

Ta'kidlash joizki, Texnologiyalar transferi markazlari (TTM) tizimining to'laqonli va samarali faoliyat yuritishiga bir qator tizimli va tashkiliy omillar halal bermoqda. Shu bois, quyidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi:

- hududiy darajada innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi va institutsional asoslarning zaifligi;

- ko'plab texnologiyalar transferi markazlarida ichki va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarining cheklangani, bu yo'nalishda marketing, logistika va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli emasligi;

- Texnologiyalar transferi markazlarini tashkil etish hamda ularning barqaror va samarali faoliyatini ta'minlash uchun zarur moliyaviy, moddiy-texnik va kadrlar resurslari bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi;

- innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi va ularning amaliyotga to'liq joriy etilmaganligi.

Hozirgi kunda internet tarmog'ida tobora ommalashib borayotgan Cloud (bulutli hisoblash) tizimi iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunga misol sifatida texnologiyalar konsorsiumining shakllanishini keltirish mumkin. Bu konsorsium doirasida firmalar gorizontaal yo'nalishda koalitsiyalar tuzishadi.

Mazkur koalitsiyalarning asosiy maqsadi - innovatsiyalarni birgalikda joriy etish, bu boradagi tajribalarni o'zaro almashish va innovatsion loyihalarni hamkorlikda

moliyalashtirishdan iborat. Ushbu hamkorliklar, ayniqsa, texnologik innovatsiyalarni yaratishda tannarxni pasaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Natijada, bu kabi integratsiyalashgan yondashuv eng samarali shakldagi hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish korxonalarini texnologik yangilash, mavjud resurslardan samarali va tejamkor asosda foydalanishni ta'minlash, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar talablariga javob beruvchi, innovatsion yondashuvlarga asoslangan, yuqori texnologiyali, eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish mamlakat rivojlanishining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, real sektor korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada fikr yuritar ekanmiz, eng avvalo, innovatsion faoliyat tushunchasining mohiyati va mazmunini chuqur o'rganib chiqish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyatni rivojlantirish iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartidir. Buning uchun texnologiyalar transferi markazlarining moddiy, moliyaviy va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, innovatsion loyihalarga soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish hamda intellektual mulk huquqlarini ishonchli himoya qilish zarur. Mazkur choralar yuqori texnologiyali, eksportbop va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga xizmat qiladi.